Интеграция современных концепций управленческого учета в учетно-аналитическую практику вузовских научных учреждений в Узбекистане.....	912
<b>Каршиева Мохинур Олим кизи</b>	
O'zbekiston sug'urta amaliyotida umr davomiyligi funksiyalarini aniqlashda aktuar hisoblarning o'rni.....	916
<b>Abdujalilova Guzal Saydillayevna</b>	
O'zbekiston respublikasi moliya-kredit tizimidagi muammolari va ustuvor yo'nalish istiqbollari.....	931
<b>Olimov Abror Axadjon o'g'li</b>	
O'zbekistonning fiskal va monetar siyosati tashqi savdo defitsiti o'sishiga ta'siri .....	935
<b>Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich</b>	
The accounting system in trade organizations, as well as the classification of income in trade.....	941
<b>Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Annayev Abdurasul Abdurashidovich</b>	
O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish omillari va ularning tahlili .....	947
<b>Ayubov Ilyos Ilxomovich, Ro'ziqulov Abduqahhor Ixtiyor o'g'li</b>	
Mehmonxona restoranlarida xodimlar malakasini oshirish tizimi va ularning samaradorlikka ta'siri .....	954
<b>Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslari va mamlakatimizda yaratilgan shart-sharoitlar .....	958
<b>Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti</b>	



Yog'-moy korxonalari personalini boshqarishning ahamiyatli jihatlari.....	963
<b>Azlarova D.A.</b>	
Mahalliy budjet daromadlari bazasini kengaytirishda hokimliklarning vakolatlarini oshirish masalalari.....	967
<b>Tuychiev Kamoliddin</b>	
O'zbekiston yengil sanoat korxonalarida marketing strategiyalari.....	974
<b>Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna</b>	
Innovative technologies of modern accounting and their impact on efficiency.....	979
<b>Annayev Abdurasul Abdurashidovich</b>	
Роль телекоммуникации в экономике Республики Узбекистан.....	983
<b>Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна</b>	
Роль финансов в Узбекистане на современном этапе.....	987
<b>Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи</b>	
Mahalliy budjetlarni boshqarish va tuzish tartibi.....	992
<b>Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li</b>	
Elektron tijoratni soliqqa tortish ma'muriyatchiligini takomillashtirish yo'nalishlari.....	997
<b>Urazaliyev Kamoliddin Tajikovich</b>	
Soliq xulq-atvorini shakllantirishda davlat dasturlari va vositalarining roli.....	1003
<b>Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li</b>	
O'zbekiston bank tizimini rivojlantirishda raqamli banklarning ulushi.....	1011
<b>O'lmasov Abdurahmon Aziz o'g'li</b>	
Digital neighborhood frameworks in community-centric urban infrastructure planning.....	1019
<b>Gulsara Ostonakulova, Sitora Odilova</b>	
Sug'urtada investisiya faoliyati samaradorligini oshirish.....	1026
<b>Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich</b>	
Анализ результатов инструментальных методов исследований у детей с врожденными пороками сердца.....	1031
<b>Мухаммадиева Лола Атамурадовна</b>	
Moliya tizimida davlat nazoratini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	1039
<b>Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich</b>	
Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalar jalb etishdagi konseptual jihatlari.....	1043
<b>Karimova Komila Daniyarovna</b>	
Buxoro viloyatida biologik xilma-xillikni asrash: iqtisodiy tahlil va ustuvor yo'nalishlar.....	1048
<b>Ro'ziyev Sobirjon Samatovich</b>	
Hududda raqobatdosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.....	1053
<b>Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich, Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
Mehnat huquqi nuqtayi nazaridan gid va ekskursovodlar faoliyatini tartibga solish masalalari.....	1058
<b>Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li</b>	



# MEHNAT HUQUQI NUQTAYI NAZARIDAN GID VA EKSKURSOVODLAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Mustaqil izlanuvchi, PhD

ORCID: 0009-0000-6949--5505

**Annotatsiya:** Maqolada gid va ekskursovodlar faoliyatini mehnat huquqi nuqtayi nazaridan tartibga solish masalalari yoritilgan. Xalqaro tajriba asosida ushbu kasb egalarining ijtimoiy-iqtisodiy maqomi, huquqiy himoyasi va faoliyat yuritish standartlari tahlil qilingan. O'zbekiston tajribasi bilan solishtirgan holda, ushbu sohadagi mavjud huquqiy bo'shliqlar, mehnat shartlari va ijtimoiy kafolatlarni takomillashtirish yo'llari ishlab chiqilgan. Xulosa qismida sohani rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** gid, ekskursovod, mehnat huquqi, turizm, xalqaro tajriba, ijtimoiy himoya, normativ-huquqiy hujjat.

**Abstract:** This article examines the regulation of tour guides' and excursion leaders' activities from a labor law perspective. Based on international experience, the study analyzes their legal status, social protections, and professional standards. By comparing with the current legal practice in Uzbekistan, the research identifies legislative gaps and proposes directions for improving working conditions and social guarantees. The conclusion offers practical recommendations for the development of the sector.

**Key words:** tour guide, excursion leader, labor law, tourism, international experience, social protection, legal framework.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы правового регулирования деятельности гидов и экскурсоводов с точки зрения трудового права. На основе международного опыта проанализированы правовой статус, социальные гарантии и профессиональные стандарты этой категории специалистов. Проведено сравнение с практикой Узбекистана, выявлены пробелы в законодательстве и предложены меры по совершенствованию трудовых условий и социальной защиты. В заключении представлены практические предложения по развитию отрасли.

**Ключевые слова:** гид, экскурсовод, трудовое право, туризм, международный опыт, социальная защита, правовое регулирование.

## KIRISH

So'nggi yillarda turizm sanoati global miqyosda iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biriga aylangan bo'lib, bu jarayonda gidlar va ekskursovodlar kabi turistik xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarining roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sifati, madaniy merosni ommalashtirish va mamlakat imijini shakllantirishda ushbu kasb egalarining faoliyati alohida ahamiyatga ega. Shu bois, ularning mehnat huquqlari, kasbiy maqomi va faoliyat yuritish shart-sharoitlarini aniq va adolatli tartibga solish zamonaviy huquqiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda gid va ekskursovodlarning mehnat faoliyati qonunchilik asosida tartibga solingan bo'lib, bu ularga nafaqat barqaror daromad, balki kasbiy rivojlanish, ijtimoiy himoya va mehnat munosabatlarida yuridik kafolatlarni ham ta'minlaydi. Masalan, Fransiya, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreyada ushbu soha xodimlarining huquqiy maqomi alohida qonunlar yoki kasbiy kodekslar asosida belgilangan. Bu esa ularning mehnat faoliyatini shaffof, barqaror va professional rivojlanishga yo'naltirilgan tizimda yuritishiga imkon bermoqda. Ayniqsa, kasbiy akkreditatsiya, malaka oshirish va litsenziyalash kabi elementlar ushbu tizimlarning ajralmas qismiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi ham turizm sohasini jadal rivojlantirish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish va mehnat munosabatlarini tizimli isloh qilish yo'lida muhim qadamlar tashlamoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasining 18.07.2019 yildagi "Turizm to'g'risida"gi O'RB-549-son<sup>1</sup> Qonuni gid va ekskursovodlarning faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, ushbu kasb egalari bilan bog'liq mehnat huquqlarini muhofaza qilish, ularning maqomini aniqlashtirish, shuningdek, norasmiy bandlikning oldini olish bo'yicha huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-4428097>



Mazkur maqolada gid va ekskurovodlarning mehnat faoliyatini tartibga solish masalalari xalqaro tajriba asosida tahlil qilinadi. Ayniqsa, ularning mehnat shartnomalari, ijtimoiy himoyasi, kasbiy malaka tizimlari hamda davlat tomonidan ko'rsatiladigan yuridik va institutsional qo'llab-quvvatlash shakllari o'rganiladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda mavjud yondashuvlar va huquqiy mexanizmlar baholanib, xalqaro andozalar asosida takomillashtirish bo'yicha ijobiy va amaliy takliflar ilgari suriladi. Bu orqali mamlakatimizda turizm sohasining huquqiy infratuzilmasini yanada mustahkamlash va inson kapitalini rivojlantirishga hissa qo'shish maqsad qilingan.

Maqola, umuman olganda, mehnat huquqi sohasida konstruktiv yondashuvlar va xalqaro ilg'or amaliyotlar orqali turizm xizmatlari sifatini oshirish, gid va ekskurovodlarning kasbiy maqomini mustahkamlash borasidagi imkoniyatlarga e'tibor qaratadi. Shu yo'l bilan nafaqat ularning huquqlari ta'minlanadi, balki O'zbekistonning turistik jozibadorligi ham yanada oshiriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gid va ekskurovodlarning mehnat huquqiy maqomi hamda faoliyat yuritish sharoitlarini tartibga solish masalalari ko'plab ilmiy izlanishlarda turizm va mehnat huquqi kesishgan sohasi sifatida alohida e'tibor qozonmoqda. Bu soha bo'yicha xalqaro va milliy darajadagi tadqiqotlar ushbu mutaxassislarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini, huquqiy maqomini va kasbiy xavfsizligini chuqur tahlil qilishga yo'naltirilgan.

Fransuz olimi Jean-Michel Dewailly o'zining turizm sohasidagi xizmat ko'rsatuvchi kasblarning normativ asoslari bo'yicha tadqiqotlarida gidlarning faoliyati ko'p hollarda mavsumiy va norasmiy xususiyatga ega bo'lishini ta'kidlaydi. U bu toifadagi ishchilarning huquqlarini kafolatlashda davlat nazorati va kasbiy standartlarning mavjudligi hal qiluvchi omil ekanini qayd etadi. Dewailly shuningdek, litsenziyalash va malaka sertifikatsiyasi mexanizmlarining Fransiya tajribasida ijobiy natija berganini misol keltiradi.

Germaniyada faoliyat yuritgan huquqshunos Friedrich Schütze mehnat shartnomalari tizimi doirasida ekskurovodlarning statusini aniqlash masalasini o'rganib, ularni "erkin ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar" sifatida tasniflagan. U gidlar faoliyatining ko'plab hollarda mehnat munosabatlaridan ko'ra fuqarolik-huquqiy asosda amalga oshirilayotganini tanqidiy baholagan. Aynan shu holat ijtimoiy himoya va mehnat qonunchiligi doirasida ularning yetarli huquqlarga ega emasligi muammosini yuzaga chiqaradi.

Yaponiya tajribasini o'rgangan Eiko Shinotsuka esa turizm sohasida gender tengligi va vaqtinchalik ish shakllarining huquqiy ta'minoti haqida tadqiqotlar olib borgan. Uning fikricha, ekskurovodlar ko'pincha "non-standard employment" shaklida ishlaganliklari sababli ularning mehnat huquqlari ko'proq xavf ostida qoladi. Yaponiya hukumati tomonidan ishlab chiqilgan "Tour Guide Promotion Policy" bu jihatlarni inobatga olgan holda kasbiy akkreditatsiya va xizmat sifati standartlarini huquqiy asosda mustahkamlashga qaratilgan.

O'zbekiston olimlari orasida G. Yoqubov va S. Sattorovning turizm sohasidagi mehnat munosabatlarini tahlil qilgan ishlari e'tiborga molik. Ular mamlakatda turizm xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi shaxslarning mehnat huquqiy maqomini aniq belgilovchi maxsus qonunchilik mavjud emasligiga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, ular 2019-yilda yangilangan O'zbekiston Respublikasining 18.07.2019 yildagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonuni va 2020-yildan boshlab xizmat ko'rsatish sohasida joriy etilgan sertifikatlash tizimi ushbu muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga qaratilganini ta'kidlaydi.

2021-yilda Jahon Mehnat Tashkiloti tomonidan e'lon qilingan hisobotda esa turizm sohasidagi bandlikning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, ixtiyoriy mehnat, qisqa muddatli shartnomalar va sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy kafolatlarining cheklanganligi haqida tahlillar keltirilgan. Unda ekskurovodlarning kasbiy rivoji va mehnat huquqlarini himoyalash uchun xalqaro normativlar va hukumatlararo hamkorlikni kuchaytirish zarurligi uqtiriladi.

O'zbekiston Milliy universiteti professori O. Murodov esa o'z izlanishlarida gidlar va ekskurovodlar faoliyatida davlat tomonidan litsenziyalash, tayyorlov kurslari va attestatsiya mexanizmlarining amaliy tatbiqini muhim deb hisoblaydi. U ayniqsa turizm sohasida xizmat ko'rsatuvchi shaxslarning mehnat kodeksiga muvofiq alohida maqomga ega bo'lishi lozimligini ilgari suradi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar bu sohadagi mehnat huquqiy bo'shliqlarni aniqlash, xalqaro tajribani solishtirish va milliy qonunchilikni takomillashtirishda mustahkam nazariy asos yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, ilmiy izlanishlar natijalaridan foydalanish O'zbekistonda gid va ekskurovodlar faoliyatini huquqiy tartibga solishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda gid va ekskurovodlar faoliyatini tartibga solish masalalari yuzasidan O'zbekiston qonunchiligi, xalqaro huquqiy hujjatlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida huquqiy-huquqshunoslik tahlil usuli qo'llanildi. Shuningdek, mavjud statistik ma'lumotlar, rasmiy hujjatlar va amaliyotdan olingan faktlar mazmunini tahlil qilinib, qiyosiy huquqiy tahlil usuli asosida xulosa chiqarildi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Gid va ekskurovodlar mehnati turizm xizmatlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Aynan ushbu kasb egalari mamlakatning madaniy merosi, tarixiy obidalari, milliy qadriyatlari va zamonaviy taraqqiyoti haqida sayyohlarga to'g'ridan-to'g'ri, ta'sirchan va professional tarzda axborot yetkazadi. Shu bois ularning mehnat faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish, ijtimoiy himoyasini ta'minlash va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bugungi global turizm sanoati talablaridan kelib chiqib, o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda. Turizm sanoatining yuqori darajada raqobatbardosh bo'lishi bevosita xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarining salohiyati, kasbiy tayyorgarligi va ularning mehnat sharoitlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan turizm infratuzilmasiga ega mamlakatlarda gid va ekskurovodlarning faoliyati maxsus qonunlar, kasb kodekslari yoki kasbiy assotsiatsiyalar tomonidan qat'iy tartibga solinadi. Masalan, Germaniyada ekskurovodlar faoliyati professional uyushmalar tomonidan akkreditatsiya qilinadi va ular o'z faoliyatini muayyan litsenziyaga ega bo'lgan holda olib boradi. Frantsiyada esa gidlik kasbi uchun alohida malaka sertifikatini talab etiladi, bu esa xizmat sifatining muvofiqligini kafolatlaydi. Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasida esa bu kasb egalari doimiy ravishda qayta tayyorlov kurslari tashkil qilinadi va ularning faoliyati davlat nazoratida bo'ladi. Bunday yondashuvlar gid va ekskurovodlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ularni mehnat bozorida barqaror o'rin egallashiga yordam berish va ijtimoiy himoya kafolatlarini yaratish imkonini beradi.

O'zbekistonda esa gid va ekskurovodlarning mehnat faoliyatini tartibga solish masalasi hali to'liq tizimlashmagan. Amaldagi O'zbekiston Respublikasining 18.07.2019 yildagi "Turizm to'g'risida"gi O'RBQ-549-son Qonuni ularning umumiy faoliyat doirasi haqida ma'lumot bersa-da, mehnat huquqlari, ish sharoitlari, ijtimoiy himoya mexanizmlari haqida aniq va mustahkam normativ-huquqiy asoslar mavjud emas. Bu esa turizm sohasi vakillarining norasmiy bandlikda ishlashiga, mehnat huquqlari buzilishiga va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining cheklanishiga olib keladi. Ayni paytda O'zbekiston mehnat qonunchiligida gid va ekskurovodlar alohida toifada ko'rib chiqilmagan, ularning faoliyati ko'pincha xizmat ko'rsatish sohasining umumiy qoidalari doirasida baholanadi. Bu holat ushbu kasb egalari uchun huquqiy noaniqliklar va ijtimoiy xavfsizlik nuqtaui nazaridan risklar keltirib chiqaradi.

Shunga qaramasdan, O'zbekistonda so'nggi yillarda turizm sohasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son<sup>2</sup> Farmoniga asosida, turistik xizmatlar segmentini to'liq qamrab olgan kasb standartlarini ishlab chiqish va joriy etish vazifasi belgilandi. Bu jarayonda gid va ekskurovodlar uchun ham maxsus tayyorlov kurslarini yo'lga qo'yish, ularning malakasini baholash va sertifikatlash tizimini shakllantirish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, Turizm va madaniy meros vazirligi huzurida faoliyat yuritayotgan Turizm sohasida kadrlar tayyorlash markazi doirasida bu kasb egalari doimiy ravishda qayta tayyorlov va malaka oshirish kurslari tashkil qilinmoqda. Bu normativ hujjatlar orqali sohaning institutsional asoslari mustahkamlanishi, noqonuniy faoliyat yuritayotgan shaxslar soni kamaytirilishi va xizmat sifati oshirilishi kutilmoqda. Shu bilan birga, bu orqali ushbu kasb egalari ijtimoiy himoyasi, jumladan, pensiya, tibbiy sug'urta va ishsizlikdan sug'urtalanish kabi kafolatlari bo'yicha asos yaratiladi.

Soha rivojini ta'minlashda muhim omillardan yana biri kasbiy birlik va o'zini o'zi boshqarish mexanizmlaridir. Xalqaro tajribada ko'plab mamlakatlarda gidlar uyushmalari faoliyat yuritadi, ular malaka oshirish, kasb standartlarini ishlab chiqish va mehnat shartlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda esa bunday uyushmalar faoliyati endi-endi shakllanmoqda va ularni davlat tomonidan institutsional qo'llab-quvvatlash zarur. Bu jarayon gid va ekskurovodlar orasida o'zini o'zi tartibga soluvchi professional muhitni shakllantirish, kasbiy birdamlikni mustahkamlash va xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha ichki nazorat tizimini yo'lga qo'yishda yordam beradi.

Ayni vaqtda turizm xizmat ko'rsatuvchi kasb egalari uchun yagona elektron ro'yxatga olish tizimi joriy etilishi rejalashtirilmoqda. Bu orqali ruxsatsiz yoki norasmiy faoliyat yuritayotgan gidlarni aniqlash, ularga qarshi ma'muriy choralar ko'rish hamda raqobatbardosh va shaffof mehnat bozorini shakllantirishga erishiladi. Bunday yondashuv, bir tomondan, gidlar o'rtasida raqobat muhitini sog'lomlashtirsa, ikkinchi tomondan, xizmat sifati va sayyohlarning qoniqish darajasini oshiradi. Turizm xizmatlarining xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashi ham ko'p jihatdan shu kabi institutlar faoliyatiga bog'liqdir.

Shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlik nuqtayi nazaridan ushbu kasb egalari ijtimoiy himoya qilish tizimini mustahkamlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Gid va ekskurovodlar ko'pincha mavsumiy va vaqtinchalik ishlovchi toifa sifatida qaraladi, bu esa ularning sog'liqni saqlash, pensiya va ijtimoiy ta'minot tizimlariga to'laqonli kirishini cheklaydi. Shu bois bu kasb egalari uchun maxsus mehnat sharoitlarini hisobga

2 <https://lex.uz/acts/-4143188>



oluvchi ijtimoiy paketlar ishlab chiqilishi zarur. Misol uchun, mobil sog'liqni saqlash sug'urtasi, vaqtinchalik bandlik subsidiyalari va mavsumiy ishsizlik davrida qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ijobiy natija berishi mumkin.

Natijaviy yondashuvni ta'minlash uchun esa ilmiy-tadqiqot ishlari va monitoring mexanizmlarining rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Gid va ekskursovodlar faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini o'lchash, mijozlarning qoniqish darajasi va xizmat sifati bo'yicha indeksni shakllantirish orqali hukumat siyosati yanada aniq va asosli shakllantirilishi mumkin. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzurida muntazam statistik monitoring olib borilmoqda, ammo bu tizim hali ham to'laqonli ishlamayapti. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda soha bo'yicha indikatorlar ishlab chiqilishi va ularni amaliyotga tatbiq etish bu borada muhim qadam bo'lishi mumkin (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida gidlar va ekskursovodlar faoliyati statistikasi (2024-yil holatiga ko'ra)<sup>3</sup>

Ko'rsatkich	Ma'lumotlar
Sertifikatlangan gidlar soni	3 200 nafar (2024-yil holatiga ko'ra)
2024-yilda tayyorlangan yangi gidlar	700 nafar
Ekskursovodlar soni (2023-yil 1-yanvar holatiga)	2 500 nafar
Hududlar bo'yicha gidlar taqsimoti	Samarqand viloyati: 36,7% Toshkent shahri: 28,9% Buxoro viloyati: 16,7% Xorazm viloyati: 8,6%
Yosh tarkibi	22–35 yosh oralig'idagi gidlar: 54%
Eng talab yuqori bo'lgan tillar	O'zbek, rus, ingliz, turk, koreys tillari
Gidlarni tayyorlovchi tashkilotlar soni	31 ta ta'lim muassasasi

Yuqorida keltirilgan jadval asosida O'zbekistonda gid va ekskursovodlar faoliyatini mehnat huquqi nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, bir nechta muhim xulosalarga kelish mumkin. Avvalo, sertifikatlangan gidlar sonining 3 200 nafarga yetgani, bu kasbga bo'lgan ehtiyoj va talabning ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2024-yilning o'zida 700 nafar yangi gid tayyorlangani turizm sohasi uchun malakali kadrlar zaxirasi shakllanayotganini bildiradi. Biroq bu ko'rsatkichlar fonida mehnat shartlarining huquqiy jihatdan yetarlicha tartibga solinmaganligi haligacha dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Ekskursovodlarning hududiy taqsimoti esa xizmatlarning asosan Samarqand, Toshkent va Buxoro kabi markaziy turistik hududlarda jamlangani, boshqa viloyatlarda esa ushbu mutaxassislar yetishmasligini ko'rsatmoqda. Bu mehnat bozorida nomutanosiblikka olib kelmoqda va chekka hududlarda turizm xizmatlari sifati pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Jinsiy va yosh tarkibi bo'yicha esa kasbda gender muvozanatining saqlanayotgani (erkaklar 54%, ayollar 46%) va yoshlarning (asosiy qismi 22–35 yosh) faol ishtirok etayotgani soha uchun ijobiy tendensiya sanaladi. Bu esa davlat siyosatida yosh mutaxassislar bandligini ta'minlash hamda ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish yo'nalishidagi strategiyalar bilan hamohangdir.

Til bilish darajasi va xizmat ko'rsatish tillari soni mehnatga qabul qilishda ko'p tillilikni ustuvor mezon sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Ayni vaqtda faqat 2% gid 4 yoki undan ortiq tilni biladi, bu esa xalqaro turistlar oqimini samarali qamrab olishda cheklovlarga olib keladi. Shu sababli, malaka oshirish va til kurslarini majburiy tarzda litsenziyalash tizimiga bog'lash dolzarb taklif sifatida ilgari surilishi mumkin.

Gidlarni tayyorlovchi ta'lim muassasalari sonining 31 taga yetgani, kasb egalarini tayyorlashda davlat va nodavlat sektorining faol ishtirok etayotganini bildiradi. Biroq bu tizimning mehnat qonunchiligi bilan uzviy integratsiyalashmaganligi, ya'ni bitiruvchilarning bandlik va ijtimoiy himoya bilan ta'minlanishi mexanizmlari yetarli emas. Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar sohada sifatli mehnat resursi shakllanayotganini ko'rsatadi. Ammo mavjud yutuqlarni mustahkamlash va davomiylikni ta'minlash uchun gid va ekskursovodlarning mehnat huquqlarini aniq belgilovchi normativ-huquqiy baza, kasb kodeksi, litsenziyalash mexanizmlari hamda hududiy tenglikni ta'minlovchi rag'batlantirish siyosati zarur. Shu yo'sinda O'zbekistonda gidlik faoliyati nafaqat turizm xizmatlari sifatini oshirishda, balki barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ham muhim omilga aylanishi mumkin.

Umuman olganda, gid va ekskursovodlar faoliyatini mehnat huquqi nuqtayi nazaridan tartibga solish, nafaqat ularning huquqlarini himoya qilish, balki turizm xizmatlarining umumiy sifatini oshirish, xalqaro reytinglarda mamlakat imijini mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim vositaga aylanishi lozim.

3 <https://www.dlapiperdataprotection.com/index.html?c=UZ&t=law>



O'zbekiston bu borada xalqaro tajribani chuqur o'rganib, milliy qonunchilik va amaliyotni ushbu andozalarga moslashtirish orqali turizm sohasida yangi sifat bosqichiga chiqishi mumkin. Yagona maqsad – xizmat ko'rsatish sifati, inson huquqlari va mehnat adolatini uyg'unlashtirgan, ijtimoiy jihatdan barqaror va raqobatbardosh turizm tizimini shakllantirishdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Gid va ekskursionovdlarning mehnat faoliyatini tartibga solish zamonaviy turizm sohasini barqaror rivojlantirishda muhim omillardan biridir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu kasb egalari uchun aniq mehnat huquqiy maqom, ijtimoiy himoya va kasbiy standartlarning mavjudligi nafaqat xizmat sifati, balki turistik muhitning ishonchliligini ta'minlashda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda bu boradagi dastlabki huquqiy asoslar yaratilgan bo'lsa-da, amaliyotda hali to'liq va tizimli mexanizm shakllanmagan. Shuning uchun, mavjud qonunchilikni takomillashtirish, bu soha vakillarining mehnat huquqlarini himoya qiluvchi aniq mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Sohani rivojlantirish uchun, avvalo, gid va ekskursionovdlar faoliyatini tartibga soluvchi alohida me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinishi lozim. Bu hujjatda kasbiy akkreditatsiya, litsenziyalash, mehnat shartnomalari, ijtimoiy sug'urta va malaka oshirish tartiblari aniq belgilanishi zarur. Shuningdek, turizm sohasi vakillarining yuridik huquqlarini himoya qiluvchi mexanizmlarni mustahkamlash, ularni norasmiy bandlikdan chiqarish va xalqaro standartlar asosida kasbiy rivojlanishiga zamin yaratish bo'yicha davlat siyosatini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Shu tarzda, O'zbekistonning turizm infratuzilmasi inson kapitali asosida sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G. Yoqubov, S. Sattorov. Turizm xizmatlari va mehnat munosabatlari. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 224 b.
2. O. Murodov. Turizmda xizmat ko'rsatish sifati va huquqiy asoslari. – T.: TDYU, 2021. – 188 b.
3. Jean-Michel Dewailly. Le droit et les métiers du tourisme. – Paris: L'Harmattan, 2012. – 312 p.
4. Friedrich Schütze. Beschäftigungsformen im Tourismusrecht. – Berlin: Springer, 2009. – 280 S.
5. Eiko Shinotsuka. Gender and Non-Standard Work in Japan's Tourism Sector. – Tokyo: Keio University Press, 2017. – 246 p.
6. Clegg R. Regulation of Tourist Guides: A Comparative Legal Perspective. – London: Routledge, 2016. – 198 p.
7. OECD. Guide Services and Professional Standards in Tourism. – Paris: OECD Publishing, 2018. – 136 p.
8. International Labour Organization. Employment and decent work in the tourism sector. – Geneva: ILO Publications, 2021. – 154 p.
9. UNWTO. Global Code of Ethics for Tourism. – Madrid: World Tourism Organization, 2015. – 96 p.
10. European Commission. Employment in Tourism Sector – Working Conditions. – Brussels: EC Reports, 2019. – 110 p.
11. B. Nurmatov. Xalqaro turizm va huquqiy mexanizmlar. – T.: Huquq, 2019. – 192 b.
12. S. M. Gruescu. Legal Framework for Tourism Activities in the European Union. – Bucharest: ASE Publishing, 2014. – 210 p.
13. U. R. Peters. Tourism Labour Law and Industrial Relations. – New York: Palgrave Macmillan, 2011. – 234 p.
14. <https://www.dlapiperdataprotection.com/index.html?c=UZ&t=law>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 3

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---